

BOLALAR O'YININI TASHKIL ETISHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI.

D.Q.Asqarova

*NamDU Maktabgacha
ta'lim metodikasi kafedrası
dotsenti*

Yo'ldasheva Mehrinsa Komiljon qizi

*NamDU Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda o'yin faoliyatining muhim ekanligi, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o'qitishda katta salohiya egaligi, bolalar o'yinini targ'ib qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar roli haqida ma'lumot beriladi.*

Tayanch tushunchalar: *ta'lim, o'yin, maqsad, vazifa, mazmun, davlat talabi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, aqlan rivojlanish, ma'nan rivojlanish, jismonan rivojlanish.*

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o'qitishda katta salohiya ega. Lekin bu xususiyatlarni u pedagogik jarayon doirasida qo'llanilganida yaxshi natija berishi mumkin.

Bolalar harakatlarni erkin boshlay olmaydi va ko'pincha pedagoglar faoliyat turlari yakuniy mahsulotga ega (masalan, bola rasm chizadi, yoki o'qiydi yoki qaror qabul qiladi). Biz tarbiyachi sifatida bu faoliyat tu ri orqali bolalarga ma'lum mazmuni o'rgatishimiz lozim bo'lsa-da, bolalar erkin o'yin faoliyatida ishtirok etishi uchun ham kun davomida ko'p vaqt ajratishimiz kerak. Bu vaqt mobaynida bolalarga o'yin uchun vaqt berish lozim, bunda kattalarning aralashmasligi yoki o'yinchilarning biri sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Ko'nikma va bilimlar o'yin orqali qiziqarli va interfaol usullarda o'rgatilgan bolalar qiziqish bilan ishtirok etadi, ma'lumotlarni tushunadilar va eslab qoladilar. Yosh bolalar uchun o'rganish va o'ynash qarama-qarshi faoliyat emas, balki o'zaro bog'liq jarayon.

Bolalar o'yinini targ'ib qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar muhim rol o'ynaydi. Bunda ular kuzatuvchi, rejissyor, o'yin ishtirokchilarini rag'batlantiradigan vositachilar sifatida qatnashishi mumkin. Ba'zan



qarorimiz to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'ladi (*masalan, o'yinga zamin tayyorlaganimi* Boshqa hollarda biz bolalarga o'yin holatiga kirishga yoki o'yinni davom ettirishiga yordam beradigan ko'nikmalarni o'rgatish kabi bevosita rollarni o'ynaymiz (*masa, murakkabroq pazlni yig'ish*). Bolalar o'yniga qachon aralashish va qachon aralashgmaslik kerakligini bilish ham muhimdir.

O'yin orqali o'rganish integratsiyalashgan va muhim bo'lsa-da, u tajribasiz ko'rinmasligi mumkin. Shuning uchun biz bolalar qanday o'rgan ganlarini, shuningdek, o'yin orqali nimani o'rganishlarini tushunishimiz kerak. Biz bolalarga uzoq, uzluksiz o'yin davrlarini takdim qilib, har xil turdagi o'yinlarni rag'batlantirish uchun etarli materiallar berib va bolalarni mustaqil o'ynashiga imkon yaratib bersak, ularga eng yaxshi yordamimizni bergan bo'lamiz. Biz, shuningdek bolalar bilan o'ynashda to'g'ridan-to'g'ri rolga qachon va qanday o'tishimiz kerakligini ham bilishimiz kerak. To'g'ri aralashuvda kattalar ishtiroki o'yinning uzoqroq murakkabroq epizodlariga olib kelishi mumkin.


Kichkina bolalar biz, ota-onalari va boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishib hamda predmetlar, materiallar va tabiatni anglash orqali bilimini kengaytiradi. **L.S.Vigotskiy** hisoblashicha, kognitiv rivojlanish eng yaqin rivojlanish natijasida boshqariladigan o'qitishdan ijtimoiy o'zaro aloqadorlik orqali yuz beradi. Zero, bolalar va ularning hamkorlari dialog orqali bilimlarini birgalikda yaratadi. Shuning uchun ta'lim strategiyalari bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini hisobga olishi kerak, chunki ular pedagoglar va bolalar o'rtasidagi va boshqalar o'rtasidagi muloqotlar asosida o'rganadilar

Kattalarning vazifasi ularni muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradigan muhitni yaratishdir: bolaning yoshiga mos ravishda istaklar, ehtiyojlar va intellektual xususiyatlarni shakllantirish. Pedagog har bir o'yin turining o'ziga xos jihatlarni hisobga olishi kerak.

O'yin umumiy tarbiyaviy vazifalarni hal etishga mo'ljallangan. Ular orasida bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirish vazifalari ustuvor hisoblanadi. Bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shaqli sifatida o'yin kundalik hayotda va umuman pedagogik jarayonda o'ziga xos o'ringa ega. Pedagog bolalarning qiziqishini uyg'otish, faolligini oshirish, ijobiy hissiyotlarini uyg'otish uchun qanday kundalik jarayonlarni o'yin shaklida qo'llash mumkinligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bolalar hayotining shakli sifatida o'yinning muhim ahamiyati uning har xil faoliyat turlariga singishidir: mehnat, kundalik jarayonlar va h.k.

O'yinning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa biron-bir faoliyat turi bilan uyg'unlikda bog'liq bo'lsa, ortib boradi. O'yinni mehnat, ko'rgazmali va konstruktiv faoliyat bilan bog'lash maqsadga muvofiq. O'yin davomida yangi o'yinchoqni





yasash (tarozi, durbin), atributlarni boshqacha bezashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Kattalar yordamida bolalar shikastlangan o'yinchoqni tuzatishlari mumkin.

Pedagog bolalarning hayoti va faoliyatini o'yin shaklida tashkil etib, faollik va tashabbuskorlikni izchil rivojlantiradi, o'yinda o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'yin ta'lim shakli sifatida ikki jihatni o'z ichiga oladi: kognitiv va o'yinli (ko'ngilochar). Tarbiyachi bir vaqtning o'zida ham pedagog, ham o'yin ishtirokchisiga aylanadi. U o'rgatadi va o'ynaydi, bolalar esa o'ynab o'rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan eng yaxshi strategiyalar bu bolalar o'yiniga turtki beradigan, rag'batlantiradigan, kayfiyatni ko'taradigan va uzaytiradiganlaridir.

Bolalar o'yinlarida ularning bilimi va tafakkurini boyitish uchun qachon va qanday ishtirok etishni tushunish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali pedagogning maxorati hisoblanadi.


O'yin faoliyatida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi quyidagi rollarda ishtirok etishi mumkin. Bolalar o'yiniga yaqindan e'tibor bersak, o'yinda sezgir va malakali yordamchilarga aylanamiz. Maqsadimiz bolalarning kuchli tomonlarini va yuqori darajadagi o'yinga kirishish va uni saqlab qolishda ular duch keladigan muammolarni aniqlashdan iborat. Biz, shuningdek, bolalar o'yin orqali qanday muammolar va konsepsiyalarni echa olishini aniqlaymiz: hokimiyat, ezgulik va yovuzlik, qo'rquv va xavfsizlik, beboshlik va nazorat, yaxshilik va yomonlik.

Biz o'yinga zamin yaratuvchi materiallar, jihoz va yoki o'yinchoqlarni taqdim etib va joylashtirib, tadbirlarni uyushtirib, bolalar o'yinlarini qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratamiz. Biz tadqiqotlarga chorlaydigan muhitni ishlab chiqamiz. Bolalarning o'yin va tasavvurlarini rag'batlantirish uchun turli xil materiallardan bir necha usullar bilan foydalanish mumkin. Materiallarni o'zgartirish yoki yangilarini qo'shish bolalarni o'yin faoliyatiga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishi va yoki kengaytirishi mumkin.

Biz bolalar o'yinini unda qatnashib, uni boshqarib va bolaning o'yindan ko'ngli qolganida yoki uni bilim va ko'nikmalar etishmaganidan tashlab ketganida qo'llab-quvvatlashimiz mumkin. Biz bolalarga vaziyat haqida o'ylashga chorlaydigan yoki rekvizitlarni boshqacha usulda qanday qo'llash kerakligini ko'rsatadigan savollarni berishimiz mumkin. Agar bola o'yin vaziyatiga kirishni xohlamasa, u ishongan katta insonning ishtiroki unga guruhga qo'shilish uchun o'zini yetarlicha xavfsiz his qilishiga yordam berishi mumkin.

Shuningdek, pedagoglar mahalliy shifokor, musiqachi, nonvoy yoki quruvchi kabi *mehmonlarni guruhga taklif qilishlari mumkin*, shunda ular bolalarga o'z ishlari haqida gapirib, asbob va uskunalaridan qanday foydalanishlarini ko'rsatishlari





mumkin. Tashrif buyuruvchilar orasida bolaning oila a'zolari, do'stlari ham bo'lishi mumkin. Bu bolada zavq va g'urur hissini uyg'otadi, o'yinga bo'lgan shijoatini oshiradi.

Ba'zi bolalarda mavzu xavotir yoki qo'rquv uyg'otsa (masalan, ular shifokor huzuriga borganlarini yoki ota-onasidan biri shifoxonaga tushib qolganini eslasalar), kitob ularga vaziyatni yaxshiroq tushunish va xavotirni engishga yordam berishi mumkin. Agar bolalar o'ynayotganda xayolini yig'a olmasa yoki ular bajarayotgan rollar va harakatlar haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lsalar, to'g'ri ma'lumotga ega bo'lgan kitobga tayanishlari zarur. Kitoblar, shuningdek, xayol va xayoliy o'yinni rag'batlantiradigan yangi tajribalar taklif qilish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi ham syujetli-rolli o'yin parchasida ssenariy va rollarni aniqlashga yordam beradigan ochiq o'rnatilmagan qoidalarni bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga yordam berish uchun model bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun, agar bola bozorda mahsulot sotsa, u mijozlar bilan muayyan tilda muloqot qilishi kerak: "Bugungi olchalarimiz juda yaxshi", "Balki siz biror narsani yeb ko'rishni istarsiz?", "Bizda arzon shirin kartoshka bor", "Nima xarid qilmoqchisiz?". Sotuvchi birdaniga xaridor bo'la olmaydi. Sotuvchi sotilayotgan mahsulotga yaqin turadi, mijozlardan pul oladi, keyin esa ularga sotib olgan mahsulotlarini beradi. O'z-o'zini boshqarish vaqt davomida rol ni bajarish va xatti-harakat "qoidalariga" amal qilish yo'li orqali sinaladi va rivojlantiriladi.

Shunday qilib, *syujetli-rolli o'yin bola rivojlanishining barcha sohalariga, ayniqsa, ijtimoiy ko'nikma va o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga - hayotiy muhim ko'nikmaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.*

Syujetli-rolli o'yin deyarli doim boshqa bolalarni qamrab oladi va shuning uchun bolaning ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Ko'pincha u birgalik-da rejalashtirish va hamkorlikni o'z ichiga oladi: "Men ona bo'laman, sen esa bola bo'lasan, xo'pmi?" yoki "Keling, xuddi mahsulot xarid qilishga borayotgandek bo'lamiz. Oygul bolani kolyaskada uchirishi mumkin". U nizolarni hal etish amaliyotini ham qo'llaydi: "Men patlari bor shapka kiymoqchim. Sen uni ololmaysan!" Bolalar bir-biri bilan bahslashishi va bir-birini ranjitishi mumkin. Bunday vaziyatlar boshqalar bilan hamkorlik qilish metodlarini ishlab chiqarishga olib keladi. Bolalar boshqalar bilan o'ynash va ishlash bu foydali mehnat ekanligini anglashadi.


Shunday qilib, syujetli-rolli o'yin ko'rsatmalar va hamkorlikka yo'naltirilgan xulq-atvorni o'rganish va amalda qo'llashda bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.
2. The National Strategies Primary: Numbers and Patterns. December, 2009.
3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO'G'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.
8. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.





13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.

14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.

15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.

